Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta'minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o'g'li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	



Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	



Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	



Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamiy Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavyonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orzbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turopova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	



QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL ETISH VA INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI



Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li

«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi,
Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish,
yangi turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarishni
va sertifikatlashni tashkil etish bo'limi boshlig'i.

ORCID: 0009-0002-0026-7218.

E-mail: ulugbek_haqberdiyev@mail.ru .

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro tajriba va soha ekspertiza natijalari asosida mavjud muammolar aniqlanib, ularning samarali yechimlari ishlab chiqilgan. Xususan, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirishga doir aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu natijalar qurilish materiallari sanoatining innovatsion rivojlanish tendensiyalarini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, ishlab chiqarish jarayoni, innovatsiya, avtomatlashtirish, texnologik samaradorlik, resurs tejamlilik, strategik boshqaruv, eksport salohiyati, raqamli transformatsiya, inson kapitali.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the theoretical foundations and practical aspects of organizing the production process in the building materials industry. Based on international experience and research findings, existing challenges have been identified and effective solutions have been proposed. Specifically, recommendations have been developed for automating technological processes, advancing the production of innovative products, enhancing the logistics system, improving human resource capacity, and expanding export potential. The results are significant for promoting innovation-driven development trends within the building materials industry.

Key words: building materials industry, production process, innovation, automation, technological efficiency, resource conservation, strategic management, export potential, digital transformation, human capital.

Аннотация: В статье проведен научный анализ теоретических основ и практических аспектов организации производственного процесса в промышленности строительных материалов. На основе изучения мирового опыта и результатов собственных исследований выявлены существующие проблемы и разработаны эффективные пути их решения. В частности, предложены конкретные рекомендации по автоматизации технологических процессов, развитию производства инновационной продукции, совершенствованию логистической системы, повышению кадрового потенциала и расширению экспортных возможностей. Представленные результаты имеют важное значение для стимулирования инновационных тенденций развития отрасли.

Ключевые слова: промышленность строительных материалов, производственный процесс, инновации, автоматизация, технологическая эффективность, ресурсосбережение, стратегическое управление, экспортный потенциал, цифровая трансформация, человеческий капитал.



KIRISH

Bugungi global iqtisodiyotda qurilish sanoati mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tarmoq nafaqat iqtisodiy faollikni oshirish, balki aholi turmush darajasini yuksaltirish, infratuzilmani yangilash va yangi ish o'rinlari yaratishda ham katta rol o'ynaydi. Qurilish sohasining samaradorligi esa, birinchi navbatda, unga xizmat qiluvchi tarmoqlar – xususan, qurilish materiallari sanoatining holatiga bog'liq. Shu bois, bu sohani rivojlantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asoslangan holda tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylangani bejiz emas.

Qurilish materiallari sanoati qurilish jarayoni uchun zarur bo'lgan sement, beton, shifer, bloklar, qurilish yog'ochlari, devor materiallari, issiqlik va ovoz izolyatsiyalovchi moddalar, metall konstruksiyalar kabi turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Ushbu sanoatdagi texnologik jarayonlar, xom ashyo manbalariga bog'liqlik, transport va logistika tizimi, energiya sarfi va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari ishlab chiqarishni tashkil etishda hal qiluvchi omillardan sanaladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qurilish sohasidagi yuqori sur'atdagi o'sish, yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, jadal urbanizatsiya jarayonlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar oldiga sifatli va raqobatbardosh qurilish materiallarini yetarli miqdorda, uzluksiz ishlab chiqarish vazifasini qo'yimoqda. Ammo, amaliy holat shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlari hali ham yetarli darajada tashkil etilmagan, texnologik samaradorlik past, resurslardan foydalanishda yo'qotishlar mavjud, avtomatlashtirish darajasi yetarli emas.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqish, zamonaviy yondashuvlar va ilg'or tajribalarni joriy etish zarur. Ishlab chiqarishni tashkil etish – bu faqat jarayonlarni rejalashtirish emas, balki u muhit, resurslar, texnologiyalar va inson omili o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan kompleks tizimdir. Ushbu tizimni to'g'ri tashkil qilish orqali xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sifatni nazorat qilish va bozor talablariga tezkor moslashish mumkin.

Qurilish materiallari sanoati har qanday mamlakat sanoat infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning rivojlanishi iqtisodiyotdagi boshqa ko'plab sohalar faoliyati uchun poydevor vazifasini o'taydi. Ayniqsa, qurilish, arxitektura, transport, muhandislik infratuzilmasi, kommunal xo'jalik va logistika kabi tarmoqlar ushbu sohadagi barqaror va sifatli ishlab chiqarish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Shu bois, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish nafaqat soha ichki ehtiyojlari, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligi nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga egadir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda qurilish sohasidagi investitsiya faolligining ortgani, yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi, yangi shahar va mahallalarning qurilishi, mehmonxona, turizm va sanoat ob'ektlariga bo'lgan ehtiyoj keskin o'sishi qurilish materiallariga bo'lgan talabni muttasil oshirib bormoqda. 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy rivojlanish strategiyalarida ham qurilish materiallari sanoati strategik ustuvor tarmoqlardan biri sifatida qayd etilgan. Bu esa mavzuning davlat miqyosidagi dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada qisqartirish, qurilish materiallari sanoatini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil etishni rag'batlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini kengaytirish, tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilish va belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish maqsadida: [1] O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasini (keyingi o'rinlarda – «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi) tashkil etish; yuqori qo'shilgan qiymatli qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, shuningdek, ixtisoslashgan yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo'yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni o'zlashtirish uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan hamkorlik qilish; talab etilayotgan sifatli mahsulot ishlab chiqarish turlarini kengaytirish, ichki bozorni import o'rnini bosuvchi va raqobatbardosh qurilish materiallari hamda mahalliy ishlab chiqarilgan buyumlar bilan to'ldirish, shuningdek, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi a'zolari faoliyatini qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish masalasi bu sohadagi asosiy muammolarning yechimini ta'minlovchi hal qiluvchi zveno hisoblanadi. Amaldagi vaziyat tahlil qilinganda, bir qator sistemali muammolar mavjudligi ko'rinib turibdi. Ular qatoriga: xom ashyo va energiya resurslaridan samarali foydalanmaslik; texnologik jarayonlarning o'zaro bog'liqligining yetarli darajada ta'minlanmaganligi; avtomatlashtirish va raqamlashtirish darajasining pastligi; ishlab chiqarish quvvatlarining noteng taqsimlanganligi; logistika tizimidagi uzilishlar va ichki ta'minot zanjirlarining samarasizligi kiradi.

Bundan tashqari, raqobat muhitining keskinlashgani, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish zarurati, mahsulot sifatining xalqaro standartlarga mos bo'lishiga bo'lgan talab bu sohadagi ishlab chiqarish jarayonini ilmiy asosda qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.



Mavzuning dolzarbligini yanada oshiradigan muhim omillardan yana biri – ekologik talablar va barqaror rivojlanish mezonlaridir. Qurilish materiallari sanoati an'anaviy ravishda yuqori energiya sarfi, chiqindilar hosil bo'lishi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish darajasi yuqori sohalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda «yashil texnologiyalar», ekologik sertifikatlash, energiya tejankor yechimlar va qayta ishlash texnologiyalarining joriy etilishi jahon amaliyotining asosiy talablaridan biriga aylangan.

Shu bilan birga, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish – ishlab chiqarish jarayonini qayta tashkil qilish va optimallashtirishni taqozo etadi.

Shu jihatdan, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha nazariy yondashuvlarni chuqur o'rganish, ularni zamonaviy amaliyot bilan bog'lash va milliy iqtisodiy sharoitga moslashtirish bugungi kunning ustuvor yo'nalishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish masalasi xalqaro va mahalliy iqtisodchilar, muhandis-iqtisodchilar hamda boshqaruv mutaxassislarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar, nazariy yondashuvlar va amaliyotdagi natijalarni tahlil qilish mavzuning ilmiy asoslarini to'g'ri anglash va sohani takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish nazariyasiga asos solgan klassik iqtisodchilardan biri Frederik Teylor o'zining «Ilmiy boshqaruv nazariyasi»da ish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, mehnatni ixtisoslashtirish va har bir operatsiyani mukammallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi [3]. Uning fikricha, texnologiya va inson omili o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ishlab chiqarishni optimal tashkil etishda asosiy omil hisoblanadi. Ammo Teylorning yondashuvi industrial davr uchun mos kelsa-da, zamonaviy sharoitda avtomatlashtirish, raqamlashtirish va ekologik barqarorlik kabi omillar ham markaziy o'rin egallamoqda.

Mahalliy olimlardan I. Hoshimov o'zining ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishni to'rt asosiy mezon bo'yicha baholashni taklif qiladi: texnologik oqillik, resurs tejankorlik, iqtisodiy samaradorlik va ishlab chiqarishdagi uzluksizlik. Uning ta'kidlashicha, O'zbekistondagi qurilish materiallari sanoatida ayrim ishlab chiqaruvchilarda bu mezonlar to'liq ta'minlanmagani oqibatida ishlab chiqarish xarajatlari yuqori va mahsulot sifati barqaror emas [4].

B. Ochilov o'zining tadqiqotlarida qurilish materiallari sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta'kidlab, soha korxonalarining aksariyatida texnologik yangilanish sur'atlari sekin ekanini, bu esa mahsulot raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini qayd etadi [5]. Uning tahliliga ko'ra, avtomatlashtirilgan va raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilmagan korxonalarda ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar 15–20 % gacha yetishi mumkin.

S. Mamatqulov esa ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqaruvni raqamlashtirishning amaliy samaralarini tadqiq qilib, shunday xulosaga keladi: zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarishning uzluksizligi va sifat darajasi 1,5–2 baravarga oshadi [6]. Uning fikricha, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda inson resurslari bilan texnologik jarayonlar o'rtasidagi optimal vazifa taqsimoti eng muhim muvaffaqiyat omili hisoblanadi.

Xorijiy mamlakat olimlaridan Maykl Porter o'zining «Raqobatbardosh ustunlik» nazariyasida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishni bozor talablariga bog'lashni talab qiladi [7]. Uning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish tizimi faqat ichki samaradorlikni emas, balki talabchan iste'molchi bozoriga tezkor moslashish qobiliyatini ham inobatga olishi shart. O'zbekiston sharoitida bu – eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda alohida ahamiyatga ega.

R. Qurbanov o'zining ilmiy tadqiqotlarida qurilish materiallari sanoatidagi resurs tejankor ishlab chiqarish modellarini tadqiq qilar ekan, shunday xulosaga keladi: xom ashyoni tejamlilash, energiya manbalarini optimallashtirish va chiqindilarni qayta ishlashni tashkil etish – ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini 20–25 % gacha oshirishga xizmat qiladi [8]. Uning fikricha, ishlab chiqarish jarayonida siklli modelni (qayta ishlash orqali yangidan ishlab chiqarish) yo'lga qo'yish barqaror rivojlanishning asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda.

D. Mo'minov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa qurilish materiallari sanoatida logistika tizimini samarali tashkil qilish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, xom ashyo ta'minoti, omborlash va tayyor mahsulotni yetkazib berish jarayonlari ishlab chiqarish tizimining uzluksizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi [9]. Agar logistika va ta'minot zanjiri markazlashtirilgan holda boshqarilsa, ishlab chiqarish xarajatlari 10–15 % gacha kamayishi, yetkazib berish muddatlari esa qisqarishi mumkin.

Shuningdek, N. Nazarova o'zining «Ishlab chiqarishda inson kapitali va mehnat unumdorligi» mavzusidagi tadqiqotida qayd etadi: qurilish materiallari ishlab chiqarishida faqat texnologik vositalar emas, balki kadrlar salohiyati ham hal qiluvchi omil hisoblanadi [10]. Uning ta'kidlashicha, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonida



xodimlar faqat bajaruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi, texnologik qaror qabul qiluvchi sub'ekt sifatida ishtirok etishi zarur. Buning uchun esa xodimlarning malakasini muntazam oshirish va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim.

Xalqaro tadqiqotchi va menejment sohasidagi mutaxassis Hiroshi Taniguchi o'zining ishlab chiqarishda «kayzen» (doimiy yaxshilash) modeli bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida aytadiki, ishlab chiqarish jarayonini har kuni mikro-optimalashtirish orqali katta xarajatlarsiz, bosqichma-bosqich samaradorlikni oshirish mumkin [11]. Uning tahlillariga ko'ra, Yaponiya sanoatida ushbu yondashuv yuqori sifat va past xarajat o'rtasidagi muvozanatni saqlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, YEI davlatlari tajribasini o'rgangan T. Yunusov tomonidan qurilish materiallari ishlab chiqarishidagi raqamli texnologiyalar – sensor monitoring, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va «aqlli ombor» (smart warehouse) loyihalarining joriy etilishi ishlab chiqarish jarayoni shaffofligini ta'minlash, xatolarni kamaytirish va tezkor boshqaruvni yo'lga qo'yish imkonini berganini ta'kidlaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda sohaning ekologik samaradorligi, qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Bu esa mavzuning o'rganilmagan jihatlaridan biri bo'lib, kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar ochadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning nazariy jihatlarini bo'yicha tadqiqotda qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy tahlil va taqqoslash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot davomida mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya kabi ilmiy usullar qo'llanildi. Ushbu metodlar yordamida qurilish materiallari sanoatida mavjud ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi, ularga ta'sir etuvchi omillar va ilg'or xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish imkoniyatlari chuqur o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi yurtimiz aholisi va qo'shni davlatlarni sifatli qurilish materiallari bilan ta'minlash maqsadida tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, ishlab chiqarish hajmini bosqichma-bosqich oshirish va yangi quvvatlarni ishga tushirish bo'yicha rejalar ishlab chiqilgan. Ushbu rejaga ko'ra, asosiy turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmi izchil o'sib boradi.

Jumladan, 2020-yilda 14,5 million tonna sement (2019-yilda – 11 million tonna), 32 million kvadrat metr keramik plitka (2019-yilda – 30,9 million kvadrat metr), 23 million kvadrat metr (2 mm o'lchamdagi) arxitektura-qurilish oynasi (2019-yilda – 18,9 million kvadrat metr), 61 million kvadrat metr gipsokarton (2019-yilda – 59,9 million kvadrat metr), 2 million 600 ming o'ram oboy (gulqog'oz) (2019-yilda – 656 ming o'ram), 650 ming dona sanitariya-texnik buyumlar (2019-yilda – 645 ming dona), 67 ming tonna issiqlik saqlovchi materiallar (2019-yilda – 63,5 ming tonna) ishlab chiqarish rejalashtirilgan [2] (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi 2020–2024 yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi (trln. so'm) [13]

1-rasmda ko'rsatilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020–2024-yillar davomida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib borgan. Biroq o'sish sur'ati yildan-yilga pasaygani kuzatiladi, bu esa soha rivojlanishidagi muayyan to'siqlar yoki bozordagi talabning to'yinganligini ko'rsatishi mumkin.



Qurilish materiallari sanoatiga investitsiyalar kiritish hajmi yildan-yilga oshgan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi ham ko'paygan. Bu esa sohaga bo'lgan xalqaro ishonchning ortishi va investitsiya muhitining yaxshilanishini ko'rsatadi(1-jadval).

1-jadval. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasiga 2020-2024 yillarda kiritilgan investitsiyalar hajmi[14].


Yillar	Jami investitsiyalar (mln AQSh dollari)	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (%)
2020	500	40
2021	600	45
2022	700	50
2023	800	55
2024	900	60

Qurilish materiallari sanoatida eksport hajmi muntazam oshgan, shu bilan birga, eksport tarkibida keramika mahsulotlarining ulushi ko'paygan. Bu esa yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga e'tiborning oshganligini ko'rsatadi(2-jadval).

2-jadval. Qurilish materiallari sanoatida 2020-2024 yillarda eksport hajmi va tarkibi.

Yillar	Eksport hajmi (mln AQSh dollari)	Asosiy mahsulotlar (%)
2020	150	Sement (40), Keramika (30), Metall buyumlar (30)
2021	200	Sement (35), Keramika (35), Metall buyumlar (30)
2022	250	Sement (30), Keramika (40), Metall buyumlar (30)
2023	300	Sement (25), Keramika (45), Metall buyumlar (30)
2024	350	Sement (20), Keramika (50), Metall buyumlar (30)

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion mahsulotlar ulushi sekinlik bilan oshgan. Bu esa soha innovatsion rivojlanishga intilayotganini ko'rsatsa-da, o'sish sur'atining pastligi yanada faol choralar ko'rishni talab qiladi (2-rasm).



2-rasm. Qurilish materiallari sanoatida 2020-2024 yillarda innovatsion mahsulotlar ulushi (foizda)[13]



O'zbekistonda 2020–2024-yillar davomida qurilish materiallari sanoatida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar va eksport ko'rsatkichlari oshgan. Biroq innovatsion mahsulotlar ulushining sekin oshishi va o'sish sur'atining pasayishi soha oldidagi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalarni oshirish; xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni davom ettirish va ularni samarali boshqarish; eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari sanoati har qanday iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega sohalardan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi qurilish, infratuzilma, uy-joy siyosati, sanoat klasterlari va eksport salohiyati bilan chambarchas bog'liq. 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda ushbu sohada keng ko'lamli islohotlar, investitsion loyihalar va texnologiyalarni joriy etish orqali muayyan natijalarga erishildi. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha yetarlicha tub o'zgarishlar qilish, tizimli va nazariy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish talab etilmoqda.

Texnologik samaradorlik va jarayonlar sifatini oshirish. Hozirgi holatda ishlab chiqarish jarayonlari ko'p hollarda an'anaviy mexanizmlarga asoslangan. Avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi past. Bu esa ishlab chiqarishning uzluksizligi, sifat va tannarxga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, texnologik jarayonlarni raqamlashtirish, sensorli nazorat, IoT, «aqlli fabrika» elementlarini joriy qilish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ishlab chiqarish jarayonini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqilishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Innovatsion faollik va ilmiy hamkorlik. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion mahsulotlar ulushi hali ham juda past – 10 % atrofida. Bu esa ilmiy-tadqiqot ishlari va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilishdan dalolat beradi. Korxonalar ko'pincha yangilik joriy etish o'rniga mavjud texnologiyalarni takrorlab ishlatishga majbur bo'lyapti. Ishlab chiqaruvchilar va oliy ta'lim/ilmiy muassasalar o'rtasida «texnoparklar» va «sanoat doktorantura» kabi hamkorlik modellarini joriy etish lozim.

Infratuzilma va logistika samaradorligi. Xom ashyo manbalariga yaqinlik, logistika tizimining muvofiq emasligi, ombor va ta'minot tizimining markazlashmaganligi ishlab chiqarish jarayonida katta yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolar to'g'ridan-to'g'ri tannarxga ta'sir ko'rsatib, mahsulotning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Hududiy qurilish materiallari klasterlari, transport-logistika markazlari, «aqlli omborlar» va to'liq raqamlashtirilgan ta'minot zanjiri platformalari tashkil etilishi kerak.

Inson kapitali va kadrlar sifatini oshirish. Mehnat unumdorligi va texnologik bilimlarning pastligi sohadagi yana bir jiddiy muammodir. Kadrlar ko'p hollarda amaldagi texnologiyalarga mos bilim va ko'nikmaga ega emas. Ta'lim tizimi esa sanoat talablaridan orqada qolmoqda. «Dual ta'lim» tizimi asosida ishlab chiqarishdagi kadrlarni qayta tayyorlash dasturlari joriy qilinishi, har bir yirik korxona huzurida malaka markazlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy barqarorlik va eksportbop mahsulotlar. Eksport hajmi oshmoqda, lekin hali ham mahsulotlar asosan past qiymatli – sement, shifer va oddiy keramika materiallaridan iborat. Yuqori qo'shilgan qiymatli, arxitektura va interyerga mo'ljallangan qurilish materiallari eksporti past darajada. Eksportbop innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida maxsus eksportga yo'naltirilgan loyihalarni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish faqat texnokrat yondashuv emas – bu strategik va kompleks boshqaruv masalasidir. Unda texnologiya, inson omili, logistika, moliya va bozor mexanizmi yaxlit tizim sifatida ko'rilishi kerak. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bugungi islohotlar asosida yanada teran, innovatsion va tizimli yondashuvlar talab qilinadi. Faqat shundagina sohaning barqaror va eksportbop rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2019-yil 20-fevraldagi "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4198-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/4207834>
2. «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi ma'lumotlari.
3. Taylor, F. W. (1911). The Principles of Scientific Management. New York: Harper & Brothers.
4. Hoshimov I. (2008). Ishlab chiqarishni tashkil etish asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
5. Ochilov B. (2016). Qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalar va texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Mamatqulov S. (2019). Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: TATU nashri.



7. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: The Free Press.
8. Qurbanov R. (2020). Qurilish materiallari sanoatida resurs tejamkor ishlab chiqarish modellarini tadqiq qilish. Samarqand: SamDU nashri.
9. Mo'minov D. (2017). Logistika tizimi va ishlab chiqarish samaradorligi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
10. Nazarova N. (2021). Ishlab chiqarishda inson kapitali va mehnat unumdorligi. Toshkent: Iqtisodiy taraqqiyot markazi.
11. Taniguchi, H. (2013). Kaizen: Continuous Improvement in Japanese Production. Tokyo: Nihon Management Institute.
12. Yunusov T. (2022). Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish: YEI sanoati tajribasi. Toshkent: Innovatsiya va iqtisodiyot ilmiy markazi.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
14. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>